

BOSHLANG'ICH SINIF O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Qo'chqarova Nasibaxon Farxodbek qizi

*Andijon davlat pedagogika institute Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim
) 1- kurs magistranti*

Annotatsiya: Ta'lim sohasida innovatsiyalarni yaratish, o'zlashtirish va tarqatish asosida ochiq, moslashuvchan, individuallashtirgan, yangi bilimlarni yaratuvchi zamonaviy pedagogik jarayonlar tashkil etildi. Bunda yangi ta'lim texnologiyalari – texnologik innovatsiyalarni, ta'lim sohasida yangi iqtisodiy mexanizmlar – iqtisodiy innovatsiyalarni, o'qitishda yangi metodlar – pedagogik innovatsiyalarni, yangi tashkiliy tuzilmalar – tashkiliy innovatsiyalarni shakllantirdi va ularning birligini ta'minladi. Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim tizimida innovatsion pedagogik muhitni yaratish va ushbu ta'lim jarayonini innovatsion yondashuv asosida tashkil etish orqali ijodkor sifatiga, intellektual salohiyatga ega yoshlarni tarbiyalash hamda bilimlar iqtisodiyotini rivojlantirish bo'yich tizimli ishlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etishi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: zamonaviy pedagogik texnologiyalar, tanqidiy fikrlash, tahlil qilish va ijodiy qobiliyatlar, innovatsion yondashuv, innovatsion usul.

МЕТОДИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОВРЕМЕННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ ГРАМОТНОСТИ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ

Кўчқарова Насибахон Фарходбековна

*Андижанский государственный педагогический институт
Теория и методика обучения и воспитания (начальное образование)
Студентка 1 курса магистратуры*

Аннотация: В системе образования были организованы современные педагогические процессы, открытые, гибкие, индивидуализированные и создающие новые знания, на основе разработки, освоения и распространения инноваций. При этом новые образовательные технологии формировали технологические инновации, новые экономические механизмы в сфере образования — экономические инновации, новые методы обучения — педагогические инновации, новые организационные структуры — организационные инновации и обеспечивали их единство. В данной статье говорится о важности создания инновационной





педагогической среды в системе начального образования и организации образовательного процесса на основе инновационного подхода для воспитания молодых людей с творческими способностями и интеллектуальным потенциалом, а также для системной работы по развитию экономики знаний.

Ключевые слова: *современные педагогические технологии, критическое мышление, аналитические и творческие способности, инновационный подход, инновационный метод.*

METHODOLOGY OF USING MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN PRIMARY CLASS READING LITERACY LESSONS

Nasibaxon Farhodbek kizi Qo'chqarova

Andijan State Pedagogical Institute Theory and Methods of Education and Upbringing (Primary Education) 1st-year Master's student

Abstract: *Based on creating, assimilating, and disseminating innovations in the field of education, modern pedagogical processes that are open, flexible, individualized, and capable of generating new knowledge have been organized. In this process, new educational technologies formed technological innovations, new economic mechanisms in education formed economic innovations, new teaching methods formed pedagogical innovations, and new organizational structures formed organizational innovations, ensuring their integration. This article discusses the importance of creating an innovative pedagogical environment in the primary education system and organizing this educational process based on an innovative approach to nurture youths with creativity and intellectual potential, as well as the implementation of systematic work to develop the knowledge economy.*

Keywords: *modern pedagogical technologies, critical thinking, analytical and creative abilities, innovative approach, innovative method.*

KIRISH.

Globallashuv jarayoni jahonda ijtimoiy-madaniy mohiyatiga ko'ra raqobatbardosh, kompetentli kadrlar tayyorlashni taqozo etmoqda. Binobarin, innovatsion ta'lim texnologiyalarni ta'lim jarayonida qo'llash natijasida ro'y beradigan o'zgarishlar – o'qituvchining yangi pedagogik malakalari manzarasini tasvirlaydi. Shu o'rinda Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun





davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”, degan fikrlari ishimizning maqsadiga bevosita mos keladi. Ayniqsa boshlang‘ich ta’limda o‘qish savodxonligini oshirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O‘qish ko‘nikmasi nafaqat ta’lim jarayonining asosiy vositasi, balki o‘quvchilarning kelgusidagi muvaffaqiyatli hayot faoliyatining ham muhim sharti hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini oshirish murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanishni taqozo etadi. Pedagogik texnologiyalar o‘qitish jarayonini yanada samaraliroq va qiziqarliroq tashkil etish imkonini beradi.

Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘qish savodxonligini oshirish uchun o‘qituvchilar turli xil pedagogik texnologiyalarni kompleks ravishda qo‘llashlari zarur. Bu o‘quvchilarning nafaqat o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantiradi, balki ularning tanqidiy fikrlash, tahlil qilish va ijodiy qobiliyatlarini ham shakllantiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI:

Ta’lim sohasida – mamlakatimiz birinchilardan bo‘lib faol innovatsion harakatni boshladi. Ma’lum bosqichda XX asr oxirlarida bunday harakatlar yo‘lga qo‘yilgan edi. Masalan, A.G.Rivin va V.K.Dyachenko tomonidan o‘qitishni jamoaviy o‘qitish, D.B.Elkonin, V.V.Davidov, L.V.Zankovlar tomonidan ilgari surilgan rivojlantiruvchi innovatsion ta’lim to‘g‘risidagi qarashlar o‘z vaqtida ma’lum ahamiyat kasb etdi. Shu bilan birga boshqa innovatsion ta’lim texnologiyalari: dialektik o‘qitish usullari (A.I.Goncharuk, V.L.Zarina), o‘qitishning individual yo‘nalishli usuli (A.A.Yarulov), “Ekologiya va dialektika” (L.V.Tarasov), evristik o‘qitish (A.V.Xutorskoy) dialog madaniyati (V.S.Bibler, S.Yu.Kurganov), loyihali o‘z-o‘zini refleksiya (G.P.Shedrovitskaya) va boshqalarni keltirish mumkin.

Mamlakatimiz olimlaridan N.A.Muslimov, M.H.Usmonboeva, D.M.Sayfurov, A.B.To‘raev, N.Azizxodjaeva, R.J.Ishmuhamedov J.Yo‘ldashevlar ta’lim va tarbiya jarayoniga innovatsion yondashuvlarni, R.A.Mavlyanova, N.X.Raxmankulova boshlang‘ich ta’limda innovatsiya masalalari, Sh.T.Boltaeva boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilar ijodiy faoliyatini tashkil etish texnologiyasi masalalarini tadqiq etganlar.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda pedagog faoliyatining innovatsion karakter kasb etishiga erishish va ta’limni innovatsion yondashuv asosida tashkil etish masalasi jiddiy o‘rganila boshlangan. V.M.Monaxov, Ye.V.Baxusova, I.A.Oleynikovalar pedagogik texnologiya va uning o‘quv-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishdagi roli, G.K.Selevko zamonaviy ta’lim texnologiyalarining o‘ziga xos xususiyatlari, M.V.Klarin pedagogik texnologiyalarning mohiyati va mazmuni, D.Zinger, T.Tate, M.Warschauerlar pedagogik texnologiya orqali o‘rganish va o‘qitish, o‘qituvchining bu boradagi amaliyoti xususida izlanishlar olib borganlar.



TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish holati tahlil qilinadi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR.

O'tkazilgan adabiyotlar tahlili boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini oshirishda qo'llaniladigan samarali pedagogik texnologiyalarning keng qamrovli tizimini aniqlash imkonini berdi. Ushbu texnologiyalarning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularning kompleks qo'llanilishi yuqori natijalarni ta'minlaydi. Ta'limning bugungi vazifasi o'quvchilarni kun sayin ortib borayotgan axborot – ta'lim muhiti sharoitida mustaqil faoliyat ko'rsata olish, turli sohalarida zamonaviy axborot texnologiyalarini samarali qo'llash va axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iborat.

Shu maqsadda, o'quvchilarga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish hamda ijodiy fikrlash va mustaqil qarorlar qabul qilishga o'rgatish zarur. Bu masalaning yechimi tabiiyki, mazkur jarayonning asosiy tashkilotchisi – pedagoglarni tayyorlash sifatiga bog'liq. Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo'lgan ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo'lidan ildam borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, unga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta'lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar ta'lim tizimida ham o'ziga xos o'zgarishlarni kiritish va yangiliklarni joriy etish zaruratini belgilab bermoqda.

Jamiyatning axborotlashuvi ta'lim tizimida uzluksiz innovatsiyalarni talab etadi. Bugun har qanday uslub darhol eskirishi va yangi metodlar bilan boyitilishi mumkin. Dars mashg'ulotida kerakli natijalarga erishish qaysi omillarga bog'liq? Dunyoning turli mamlakatlarida ko'plab tadqiqotchilar tomonidan ta'limda innovatsiyalarni qo'llash bo'yicha izlanishlar olib borilgan. Ularda “innovatsiya”, “interfaol usullar”, “innovatsion texnologiyalar” to'g'risida yaxshi axborotlar to'plangan, biroq axborot texnologiyalarini ta'lim muassasalarida o'rgatish samaradorligini orttirish bo'yicha aniq tavsiyalar yetarli emas. Shuning uchun asosiy maqsad yuqori darajada o'zlashtirish natijalariga erishishni ta'minlovchi innovatsion texnologiyalardan foydalanishning samarali usullarini ishlab chiqish, xususan, zamon talab etayotgan axborot texnologiyalari bo'yicha pedagogik innovatsiyalardan foydalanish masalalarini tadqiq etishdan iboratdir. Ta'lim jarayoniga innovatsiyalarni qo'llash bugungi kunda quyidagi vazifalarni amalga oshirishni talab etadi:

- o'quv fanining aniq maqsadini aniqlash;
- fanning hajmi va mazmunini aniqlash;
- zarur bo'lgan ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish va tavsiya etish;



- fanning moddiy va texnik ta'minotini yaratish;
- ta'lim oluvchilarning xususiyatlarini o'rganish;
- o'qituvchining tayyorgarligi va dars mashg'ulotini loyihalash.

Yuqoridagi vazifalar ichida eng muhimi bu – o'quv jarayonini tashkil etish uchun eng maqbul bo'lgan pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqishdir.

Pedagogik texnologiya — ta'lim shakllarini optimallashtirish maqsadida o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonining inson salohiyati va texnik resurslarni qo'llash, ularning o'zaro ta'sirini aniqlashga imkon beradigan tizimli metodlar majmuasidir. Shuningdek, texnologiya deganda, subyekt tomonidan obyektga ko'rsatilgan ta'sir natijasida subyektda sifat o'zgarishiga olib keluvchi jarayon tushuniladi. Texnologiya har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalanib, obyektga yo'naltirilgan aniq maqsadli muayyan ketma - ketlikda bajarishni ko'zda tutadi. Yuqorida keltirilgan tushunchalarni o'quv jarayoniga ko'chiradigan bo'lsak, o'qituvchi(pedagog)ning o'qitish vositalari yordamida o'quvchi-talabalarga muayyan sharoitlarda ko'rsatgan tizimli ta'siri natijasida ularda jamiyat uchun zarur bo'lgan va oldindan belgilangan ijtimoiy sifatlarni intensiv tarzda shakllantiruvchi ijtimoiy hodisa yoki boshqacha aytganda, o'qituvchi tomonidan o'qitish vositalari yordamida o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilab olingan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayoni deb ta'riflash mumkin.

Darhaqiqat, zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining unumdorligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi. Bolaning tafakkuri endi shakllanib kelayotgan boshlang'ich sinflarda o'qituvchining mahorati, uning pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga mohirona tadbiq qila olishi, ta'limning yangi-yangi usul va metodlarini izlashi, pedagogik tajribalardan ijodiy foydalana olishi juda muhimdir.

Shuning uchun ham o'quv jarayoniga pedagogik yangiliklarni kiritish, ta'limda pedagogik texnologiyalarni qo'llash, turli innovatsion usul va metodlaridan foydalanish, ta'lim samaradorligini oshirish uchun tinimsiz izlanish bugungi kunning ehtiyojiga aylandi.

Ma'lumki, bugungi kunda dars jarayonida "Aqliy hujum", "Krassvord", "Sinkveyn", "Muzyorar", "Keys stady", "Insert", "Venn diagrammasi" va "BBB" texnologiyalaridan o'quv jarayonini tashkil qilishda foydalanilmoqda. Mazkur maqolada dars jarayonining samarasi va sifatini ta'minlashga xizmat qiluvchi yana bir nechta innovatsion metodlarni tavsiya qilamiz.

"Reklama" metodi, asosan, boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida o'z samarasini ko'rsatadi. Mazkur metodni dars jarayonining bosqichlari: o'tilgan mavzuni so'rash va yangi mavzuni mustahkamlashda qo'llash mumkin. Bu jarayonda o'qituvchi



o'quvchilarga mavzu mohiyatiga mos tartibda tarqatma materiallarni beradi, ularda "Reklama qiling!" birikmasi yozilganligi asosiy qoidadir.

O'quvchilar tarqatmalarda berilgan mavzuni, undagi shaxs yoki predmetga xos sifatlar, xatti-harakatlar, asardan parchalar, rolli ko'rsatmalar orqali reklama qilib berishlari kerak bo'ladi. Shuningdek, mazkur metoddan sinfdan tashqari o'qish darslari uchun she'r, ertak, hikoya va boshqa janrdagi kichik asarlarni tavsiya qilishda ham foydalanish mumkin. Bunda, o'quvchi yoki o'quvchilar jamoasi, boshqa o'quvchilarga o'qish uchun she'r, ertak, hikoya va boshqa janrdagi kichik asarlarni tavsiya qiladi, tavsiya qilish jarayonida reklamaning turli ko'rinishlaridan foydalaniladi. "Reklama" metodining afzalligini quyidagilarda ko'rish mumkin:

- o'quvchilarning nutqi ravonlashadi, jamoa oldida nutq so'zlash, o'z fikrini erkin bildirish olish ko'nikmalari shakllanadi;

- dars jarayonining mazmunli tashkil qilinishiga erishiladi, o'quvchilarning darsga qiziqishlari oshadi, ularda kitobga bo'lgan hurmat shakllanadi, badiiy asarlarni o'qishga bo'lgan ishtiyoqi kuchayadi;

- o'quvchilarning dunyoqarashi kengayadi, sog'lom raqobat muhiti paydo bo'ladi, o'zgalar fikrini hurmat qilish, ularni diqqat bilan tinglash, o'z diqqatini jamlash va fikrlash qobiliyatlari shakllanadi.

Misol uchun 3-sinf "O'qish savodxonligi" darsligida berilgan 7-mavzu Zahro Hasanovaning "Soat" she'rini ko'rib chiqaylik. "Reklama" metodidan foydalanib o'quvchilarga quyidagicha tarqatma materiallar, savollar tayyorlash mumkin.



O'quvchilar ushbu rasmlardagi xatti-harakatlarni rolli ko'rsatmalar orqali reklama qilib berishlari kerak bo'ladi.

Boshlang'ich sinf "O'qish savodxonligi" darslarini tashkil etishda mavzularga mos keluvchi innovatsion metodlardan foydalanish o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini uyg'otib, darsga o'ziga xos jozibadorlikni kiritadi, qisqa vaqt ichida mavzu va unga oid muammolarni tarbiyaviy tomonlarini hal qilish, xulosalar chiqarish, erkin fikrlash hamda mustahkam bilimga ega bo'lishga yordam beradi. Chunki, psixologlarning ta'kidlashicha, inson xotirasida eshitilgan ma'lumotning 20 foizi, ko'zi bilan ko'rgan ma'lumotning 30 foizi, eshitgan va ko'rgan ma'lumotning 50 foizi, amalda bajargan ishining 90 foizi saqlanib qolishini bir qator soha mutaxassislar tomonidan o'z ilmiy asarlarida yoritib berishgan.

XULOSA.

Tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha, pedagogik texnologiyalarni tanlashda kompleks yondashuv zarur. Bitta texnologiyaning o'zi kutilgan natijani bermaydi, turli texnologiyalarning optimal uyg'unligiga erishish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o'quvchilarning turli o'qish strategiyalarini egallashlariga va mustaqil o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishlariga yordam beradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, axborot kommunikatsiya tizimining yuksak darajada rivoj topib borayotgan bir jarayonda boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi texnika va texnologiyani chuqur bilishi, tahlil qila olishi va yangilik yaratilish darajasida bilimli va mahoratli bo'lishi juda muhim. Buning uchun darsni tashkil etish jarayonida barcha o'quvchilarga tushunarli, oson va qiziqarli bo'lgan usullarni tanlashi va qo'llay olishi, ko'rgazmali qurollardan foydalanishi, yangi ishlab chiqarilayotgan texnik vositalarni tadbqiq qilishi, ta'lim oluvchilarni ijodiy, mustaqil ishlashga undashi, pedagogik texnologiyalardan to'g'ri va unumli foydalanishi maqsadga muvofiqdir. O'qituvchi kreativlik asosida darsni mazmunli tashkil qila olsa, o'quvchida fanga bo'lgan qiziqish oshib boraveradi.

ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. - 146 b.
2. Юлдашева, Н. (2022). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining savodxonligini oshirish usullari. Ta'lim va tarbiya, 12(6), 78-85.
3. Smith, J., & Johnson, M. (2023). Technology integration in primary education. Journal of Educational Innovation, 18(2), 234-248.
4. Karimova, S. (2021). O'yin texnologiyalarining boshlang'ich ta'limdagi ahamiyati. Pedagogik mahorat, 8(4), 112-120.



5. Инновацион таълим технологиялари / Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Х., Сайфуров Д.М., Тўраев А.Б. – Тошкент: 2015. – 208 бет. Muslimov N., Usmonboeva M., Mirsolieva M. Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik. O'quv-uslubiy majmua. – Т.: ТДПУ, 2016.

6. Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии и педагогическое мастерство. –Т.: Издательско-полиграфический творческий дом имени Чулпана, 2005. – 200 с.

7. Ишмухамедов Р.Ж. Инновацион технологиялар ёрдамида таълим самарадорлигини ошириш йўллари /Ўрта махсус, касб-хунар таълими муассасалари ўқитувчиларининг малакасини ошириш ва қайта тайёрлаш факультети тингловчилари, академик лицей ва касб-хунар коллежлари ўқитувчилари учун услубий тавсиялар. – Т.: ТДПУ, 2004 016.

8. Йўлдошев Ж.Ғ., Усмонов С. Илғор педагогик технологиялар. – Т.: Ўқитувчи, 2004. Мавлянова Р.А., Раҳманкулова Н.Х. Бошланғич таълимда инновация. Методик қўлланма. – Т.: ТДПУ, 2007.

9. Мавлянова Р.А., Раҳманкулова Н.Х. Бошланғич таълимда инновация. Методик қўлланма. – Т.: ТДПУ, 2007.

10. Болтаева Ш.Т. Бошланғич таълимда ўқувчилар ижодий фаолиятини ташкил этиш технологияси / Замонавий таълим / Современное образование, 2017/6. 49-50-б.

11. Монахов, В.М., Бахусова, Е.В., Олейникова, И.А. Педагогическая технология В.М.Монахова от А до Я: самоучитель проектирования учебного процесса: Липецк: ИРО, 2007.

12. Селевко Г. К. Современные образовательные технологии. – М.: Народное образование, 1998

13. Кларин М.В. Педагогическая технология: понятие, сущность /Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований. – 2014. – № 10 (часть 3) – С. 114-117.

14. Zinger D., Tate T., Warschauer M. Learning and Teaching with Technology: Technological Pedagogy and Teacher Practice / BK-SAGE-CLANDININ_HUSU-170095-Chp33.indd 577 6/1/2017 10:28:20 AM. – P. 578-579.

15. Qo'chqarova N. Boshlang'ich sinflarda innovatsion metodlarning ahamiyati // "Science and education" Scientific journal. October 2020 / VOLUME 1 ISSUE 7. – B. 132-138.

